



Ensuring quality in vocational education is the foundation for preparing skilled personnel for the labor market

Nodir ERGASHEV¹

Institute of Development of Professional Education

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

vocational education,
ensuring education quality,
vocational education
providers,
monitoring,
curricula,
labor market,
industrial partnerships.

ABSTRACT

Ensuring quality in vocational education is crucial for graduates to acquire knowledge, skills, and qualifications that meet labor market demands. An effective quality control system serves to enhance the reliability, relevance, and efficiency of vocational education programs. This process encompasses standardized curricula, qualified educators, industry partnerships, and robust assessment mechanisms. Key components include accreditation, competency-based education, continuous assessment, and alignment with national and international quality standards. Quality assurance in the vocational education system plays a vital role in boosting graduates' competitiveness in the labor market, promoting lifelong learning, and supporting sustainable economic development.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp19-27>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlashning asosi

Kalit so'zlar:

kasbiy ta'lim,
ta'lim sifatini ta'minlash,
kasbiy ta'lim provayderlari,
monitoring,
o'quv dasturlar,
mehnat bozori,
sanoat hamkorligi.

ANNOTATSIYA

Kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga mos bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Samarali sifat nazorati tizimi kasbiy ta'lim dasturlarining ishonchligi, dolzarbligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon standartlashtirilgan o'quv dasturlari, malakali pedagoglar, sanoat bilan hamkorlik va ishonchli baholash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Asosiy tarkibiy qismlar qatoriga akkreditatsiya, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, doimiy baholash va milliy hamda xalqaro sifat standartlariga

¹ Independent Researcher, Institute of Development of Professional Education. E-mail: ergashev_nodir@mail.ru

moslashish kiradi. Kasbiy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, uzluksiz ta'limni rag'batlantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Обеспечение качества в профессиональном образовании – основа подготовки квалифицированных кадров для рынка труда

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

профессиональное образование, обеспечение качества образования, провайдеры профессионального образования, мониторинг, учебные программы, рынок труда, сотрудничество с промышленностью.

Обеспечение качества в профессиональном образовании играет важную роль в гарантии того, что выпускники обладают знаниями, навыками и компетенциями, соответствующими требованиям рынка труда. Эффективная система контроля качества способствует надежности, актуальности и эффективности программ профессионального образования. Этот процесс включает стандартизированные учебные программы, квалифицированных преподавателей, сотрудничество с промышленностью и надежные механизмы оценки. Ключевыми составляющими являются аккредитация, компетентностно-ориентированное обучение, постоянная оценка и соответствие национальным и международным стандартам качества. Обеспечение качества в системе профессионального образования играет важную роль в повышении конкурентоспособности выпускников на рынке труда, стимулировании непрерывного обучения и поддержке устойчивого экономического развития.

KIRISH

Mamlakatimizda so'ng yillarda olib borilayotgan jadal islohotlar davrida yoshlarni kasb-hunarli qilish, mehnat bozori uchun ish beruvchilar talablariga mos kadrlarni tayyorlash diqqat markazida turibdi. Ushbu jarayonlarda kasbiy ta'lim ishchi kuchini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxslarni mehnat bozori va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar va malaka bilan ta'minlaydi. Jadal texnologik taraqqiyot va mehnat bozori talablarining o'zgarishi sharoitida kasbiy ta'lim tizimining sifatini ta'minlash raqobatbardosh va malakali ishchi kuchini tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash tizimli yondashuvni talab qilib, u standartlashtirilgan o'quv dasturlari, o'qituvchilarning malakasi, akkreditatsiya, sanoat bilan hamkorlik va doimiy monitoring hamda baholashni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, kasbiy ta'lim tizimi bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan eskirgan o'quv dasturlari, yetarli o'qitishi infratuzilmasining yo'qligi, sanoat bilan hamkorlikning cheklanganligi va baholash hamda sertifikatlash jarayonlaridagi nomutanosibliklar. Bu muammolar kasbiy ta'lim dasturlarining samaradorligini pasaytiradi va bitiruvchilarning mehnat bozorida talabgir bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, kasbiy ta'lim tizimining dolzarbligi, ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash uchun mustahkam sifat nazorati mexanizmlari zarur.

Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tizimida sifatni ta'minlashning ahamiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari, mavjud muammolari va rivojlantirish strategiyalari hamda xorijiy davlatlarda kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash tajribalari tahlil qilinadi. Sifatni ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali kasbiy ta'lim tizimi malaka yetishmovchiligini kamaytirish, uzluksiz ta'limni rag'batlantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot mavzusiga doir bir qator olimlar tomonidan o'rganishlar olib borilgan bo'lib, U. Begimkulov, O. Musurmonova, R. Axliddinov, M. Maxmudov, L. Golish, B. Qayumov, Sh. Sharofaddinov hamda xorijliklar N. Gorshunova, O. Gazman, S. Burdinskaya, S. Trapitsion, J. Vafudu, Y. Kamin, M. Nikolovska, Z. Raicevik, S. Feyerick va A. Oviedo kabi olim va tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy izlanishlarida asosan uzluksiz ta'limda sifatni ta'minlashdagi muammolar, yechimlar va tavsiyalar berishgan.

Kasbiy ta'lim va kasbga o'qitishga oid ta'lim sifatini ta'minlashga doir mavzularda izlanishlar olib borgan S. Burdinskaya, S. Trapitsion, J. Vafudu, Y. Kamin, M. Nikolovska, Z. Raicevik, S. Feyerick va A. Oviedolar o'zlarining ilmiy izlanishlarida kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash tamoyillari, indikatorlari va samarali mexanizmlari borasida bir qator tavsiyalar berishgan [2, 3, 4, 5].

Professor, p.f.d. S. Trapitsin ta'lim jarayonida sifatni boshqarishning bir qator tamoyillariga to'xtalar ekan, unda tizimlilik, yaxlitlik, yagonalik, iyerarxiklik, uzluksizlik, dinamiklik, ijtimoiy shartlanish, istiqbollilik, boshqaruvning ilgarilab boruvchi xususiyati, texnologiklik, o'zgaruvchilik, boshqaruvning moslashuvchanligi, samaradorlik va natijadorlik kabi tamoyillar orqali sifati ta'minlash takliflarini ko'rsatib o'tgan [4].

Yevropa Ta'lim Fondining kasbiy ta'lim siyosati va tizimlari bo'yicha mutaxassisi M. Nikolovskaning Janubiy Sharqiy Yevropa va Turkiya mintaqasida kasbiy ta'lim tizimlarida sifatni ta'minlash bo'yicha olib borgan tahlillarida kasbiy ta'lim sifatini va uning ahamiyatligini oshirish uchun manfaatdor tomonlarning doimiy ishtirokini ta'minlash juda muhimligi va barcha darajalarda sifat kafolatini mustahkamlash strategiyaning asosiy maqsadi bo'lishi kerakligi hamda milliy va davlat darajasida mas'ul organlar sifatni oshirish uchun aniq maqsadlar belgilashi va ushbu maqsadlarga erishish uchun aniq mexanizmlar yaratishi zarurligi ta'kidlab o'tilgan [3].

Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, ko'pchilik davlatlar kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash va rivojlantirish bo'yicha o'z yondashuvlarini yaratish yoki qayta ko'rib chiqishda Deming siklidan, ya'ni "rejalashtirish–bajarish–tekshirish–harakat qilish" model sifatida foydalanishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar olimlarining kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash orqali mehnat bozorida malakali kadrlarini tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari va fikr-mulohazalari hamda tadqiqot mavzusiga doir xorijiy davlatlardagi tajribalari tahlil etilgan.


Shuningdek, mamlakatimizdagi kasbiy ta'lim tashkilotlari o'rtasida ta'lim sifatini ta'minlashga oid so'rovnoma o'tkazilishi orqali ta'lim sifatini ta'minlashning joriy holat o'rganilgan.

Maqolada empirik, tasviriy statistika, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Xorijiyda kasbiy ta'limda sifatni ta'minlashdagi yondashuvlari

Yevropa darajasida kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash masalasi dastlab 2000–2010-yillarga mo'ljallangan Lissabon strategiyasida belgilangan, kasbiy ta'limning maqsadlari esa Kopengagen deklaratsiyasida shakllantirilgan. Shundan buyon, Yevropa miqyosida sifatni nazorat qilish vositalari va usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlar natijasida 2009-yilda Yevropa Parlamenti va Kengashining tavsiyasi asosida Yevropa kasbiy ta'lim sifatini ta'minlash tizimi (EQAVET) tashkil etilgan [7].

Shuningdek, 2009-yildan boshlab, Yevropa kasbiy ta'lim sifatiga doir ma'lumotnomasi (EQARF) kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda sifatni ta'minlashda tizimli yondashuv yoki metodologiya sifatida tavsiya etilmoqda. EQARF-dan asosiy foydalanuvchilar milliy va mintaqaviy hokimiyat organlari, shuningdek, kasbiy ta'lim sifati uchun mas'ul davlat va xususiy tashkilotlardir.



1-rasm. EQAVETning ta'lim sifatni ta'minlash sikli.

Bu metodologiya Deming sikli bo'yicha sifatni ta'minlashning to'rt bosqichiga (rejalashtirish, amalga oshirish, baholash, tahlil qilish), shuningdek kasbiy ta'lim tizimi va kasbiy ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar uchun sifatni baholash va hujjatlashtirish uchun bir qator ko'rsatkichlarga asoslangan edi.

Kasbiy ta'lim sifatini ta'minlashning EQAVET modeli yangi boshqaruv modeli asosida sifatni oshirishning yuqori darajasiga olib chiqish uchun xizmat qilib, barcha darajalarda – kasbiy ta'lim tizimi, kasbiy ta'lim provayderlari va malaka berish jarayonlarida – sifatni doimiy takomillashtirish, kasbiy ta'lim shaffofligi va imidjini oshirishga zarurligini ta'kidlaydi [9].

Yevropa Ittifoqi davlatlari va boshqa bir qator davlatlar EQAVET asosida o'zlarining milliy kasbiy ta'lim tizimlarida sifatni ta'minlash indikatorlari, ko'rsatmalari, tavsiyalari, yondashuvlari va strategiyalarini ishlab chiqishdi.

Xorijiy davlatlar tajribalarini tahlil qilarkanmiz, kasbiy ta'limda zamonaviy sifatni ta'minlash yondashuvlari xalqaro va milliy standartlarga, xususan, EQAVET tizimiga muvofiq asosiy elementlari quyidagilardan iboratligini ko'rishimiz mumkin:

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim – amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va real ish sharoitiga moslashishni ta'minlash;

Sifatni monitoring qilish va baholash – ma'lumotlarni to'plash, natijalarni tahlil qilish va o'quv dasturlarini yaxshilashga qaratilgan choralarni joriy etish;

Akkreditatsiya va sertifikatlash – o'quv dasturlarining belgilangan talablarga mosligini tasdiqlash va ta'lim sifati kafolatini berish;

Sanoat bilan hamkorlik – amaliy ta'limni kuchaytirish va bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshirish.

Bundan tashqari, aksariyat davlatlarda kasbiy ta'limda sifatni ta'minlashda ko'pchilik davlatlarda kuzatiladigan quyidagi umumiy muammolarni keltirishimiz mumkin bo'ladi:


Eskirgan o'quv dasturlari – ular dinamik rivojlanayotgan zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kelmasligi;

Moliyalashtirish yetishmovchiligi – bu yangi texnologiyalar va o'qitish usullarini joriy etish imkoniyatlarini cheklashi;

Sanoat bilan zaif aloqalar – bu esa nazariy tayyorgarlik va ish beruvchilarning amaliyotdagi ehtiyojlari o'rtasidagi tafovutga olib kelishi.

Tahlil va natijalar muhokamasi


So'ngi yillarda rivojlangan davlatlarda demografik o'zgarishlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlaridagi sanoat korxonalarini va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida malakali o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojlar ortib bormoqda. Global darajada doimiy va vaqtincha ishga yollash bo'yicha yetakchi bo'lgan ManpowerGroup agentligining yozishicha dunyoning yetakchi kompaniyalarida mehnat resurslarining yetishmasligi o'rtacha **75 foizini** tashkil etayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2015-yilga (38%) nisbatan ikki baravarga oshgan.



Global darajada mehnat resurslarining taqchilligining yuqori ko'rsatkichlari asosan rivojlangan davlatlar: Yaponiya (85 %), Germaniya (82 %), Angliya (80 %) va Fransiya (80 %) kabi davlatlarga to'g'ri kelmoqda.

Mehnat resurslarining taqchilligi sohalar kesimida qaraydigan bo'lsak sog'likni saqlash va inson salomatligi hamda xizmatlar sohalaridagi ehtiyoj ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Mehnat resurslari taqchilligi ortib borayotgan sohalar



Shuningdek, Yevropa mehnat idorasining 2024-yildagi Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomasi (EUropean Employment Services) natijalariga ko'ra **payvandlash, santexnika ishlari, yuk mashinalari haydovchilari, tibbiyot amaliyotchilari, avtotransport mexanikasi, metallga ishlov berish, qurilish va elektr ishlari** bo'yicha malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatgan [8].

Ushbu ehtiyojlarni qondirish va iqtisodiyotni rivojlanishidan to'xtab qolishini oldini olish maqsadida ushbu davlatlar xorijdan, ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlaridan malakali kadrlarni jalb qilish jarayoni jadallashmoqda.

Global darajada iqtisodiyot rivojlanishida malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida respublikamizdagi kasbiy ta'lim tashkilotlarining oldida nafaqat ichki mehnat bozori, balki tashqi mehnat bozoriga ham o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash vazifasi turishi bilan bir qatorda, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali sifatli ta'limni yo'lga qo'yishda ta'lim tashkilotlari o'rtasida o'zaro raqobatda muvozanatni saqlash ham turibdi.

Respublikasizda kasbiy ta'limda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar negizida ham asosan ta'lim sifatini ta'minlash, ta'lim tashkilotlari mustaqilligini oshirish va mehnat bozorida raqobatbardosh mehnat resurslarini shakllantirishdan iboratdir.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 16-oktabrida qabul qilingan "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmonining qabul qilinishi natijasida yangi tashkil qilingan texnikumlarning imkoniyatlarini kengaytdi [1].

Ushbu maqolaning yozish jarayonida olib borilgan tadqiqot davomida yangi tashkil qilingan texnikumlar o'rtasida kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash oid ixtiyoriy so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomada turli hududlardan ishtirok etgan **40 ta texnikumlarning** barchasi (100 %) kasbiy ta'lim tizimida sifatni ta'minlashning ahamiyati juda muhimligini ta'kidlagan bo'lsada, lekin ularda **42 foizi** sifatni ta'minlash jarayonlari milliy standartlarga mos kelmasligini ma'lum qildi.

Ta'lim tashkilotida sifat kafolatini saqlashda eng asosiy qiyinchilik so'ralganda ishtirokchilarning **55,6 foizi** resurslar (moliyaviy, xodimlar, texnologiyalar) yetishmasligini va **44,4 foizi** sanoatning ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda yetarli darajada ishtirok etmasligini ma'lum qildi.

Bundan tashqari, "Sizning fikringizcha, muassasangizning sifatni ta'minlash tizimi kelajakdagi sanoat talablarini qondirishga qanchalik tayyor? – degan savolga ishtirokchilardan quyidagi javoblar olindi:



Natijalarda ko'rinib turibdiki, ishtirokchilarning **61,1 foizi** o'zlarining ta'lim tashkilotlarida **ta'lim sifatini ta'minlash tizimi istiqboldagi sanoat o'zgarishlarga tayyor emasligini** bildirmoqda.

Kasbiy ta'limda sifatni ta'minlashda ish beruvchilarni ishtiroki juda muhim hisoblanadi. Lekin so'rovnoma ishtirokchilarning **83,3 foizi** "amaliyot jarayonlarini tashkil qilish" ish beruvchilarning kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash jarayonida asosiy vazifasi deb ko'rsatgan.

Vaholanki, kasbiy ta'limda sifatni ta'minlashda ish beruvchilarning ishtiroki quyidagi jabhalarda muhim o'rin egallaydi:

- o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qatnashib, ularni bozor talablariga moslashtiradi;
- amaliyot, stajirovka va dual ta'lim orqali o'quvchilarni haqiqiy ish muhiti bilan tanishtiradi;
- malakalarni baholash va malaka sertifikatlarini tan olish jarayonlarida;
- ta'lim tashkilotlariga zamonaviy uskunalar, texnologiyalar va moliyaviy resurslarda yordam ko'rsatishda;
- davlat va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ta'lim standartlarini belgilashda;
- kasbiy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislarining ish samaradorligi haqida fikr-mulohazalar berib, o'quv dasturlarini takomillashtirishga takliflar berishda;
- xodimlar uchun doimiy malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini qo'llab-quvvatlashda.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, kasbiy ta'limda ta'lim sifatini ta'minlash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Birinchidan, kasbiy ta'limda sifatni ta'minlashning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish orqali EQAVET, GEMSET va boshqa xalqaro standartlar asosida sifatni ta'minlash siyosatini belgilash, sifatni ta'minlash indikatorlarini joriy qilish hamda sifatni tashqi baholashda mustaqil davlat organini belgilash;

Ikkinchidan, sanoat talablariga mos natijaga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va kasbiy ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazishni yo'lga qo'yish;

Uchinchidan, kasbiy ta'lim tashkilotlari rahbar va o'qituvchilarining ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun malaka oshirish va sertifikatlash tizimini joriy etish qilish;

To'rtinchidan, kasbiy ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish orqali O'qitish jarayonini kuzatish uchun elektron ta'lim platformalarini (LMS) joriy etish, monitoring, baholash jarayonlarini hamda o'qituvchilar va o'quvchilarning samaradorligini baholash tizimini yo'lga qo'yish.

Simulyatsiyalar, amaliyot va innovatsion usullar orqali zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash;

Beshinchidan, o'quvchilar, o'qituvchilar, ish beruvchilar va davlatning o'zaro sifatni ta'minlash jarayoniga jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda sifatni oshirish uchun barqaror moliyalashtirish modelini yo'lga qo'yish.

Bundan tashqari, kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash borasida ta'lim tashkilotlarida sifat boshqaruvini tizimli ravishda tashkil etish, kasbiy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, eng yaxshi tajribalarni rag'batlantirish, audit va o'z-o'zini baholash jarayonlarini muntazam o'tkazish kabi bir qator tizimli ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash malakali ishchi kuchini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning mehnat bozori talablariga javob berishini ta'minlaydi. Amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari orqali ta'lim sifati bitiruvchilarning bandligini oshirish, iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ish beruvchilar, ta'lim tashkilotlari va davlat o'rtasidagi hamkorlik ta'lim standartlarini ishlab chiqish va yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Samarali yo'lga qo'yilgan ta'lim sifatini ta'minlash tizimi uzluksiz rivojlanishga turtki beradi, texnologik o'zgarishlarga moslashadi va kasbiy ta'limning mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlaydi. Ta'lim sifatini ta'minlashga investitsiya kiritish nafaqat o'quvchilar va ish beruvchilar, balki keng iqtisodiyot uchun ham foyda keltiradi, malaka bo'shliqlarini to'ldirish va uzluksiz ta'limni rivojlantirishga yordam beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanib borishi va turli investitsiya loyihalarni amalga oshirilishi natijasida vujudga kelayotgan yangi ish o'rinlari uchun yuqori bilim va ko'nikmaga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashga talab oshmoqda.

Shuning uchun, kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki aynan shu mexanizm orqali yaxshi tayyorlangan ishchi kuchini yetkazib berish ta'minlanadi.

Tadqiqot davomida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga qarasa, aksariyat ta'lim tashkilotlari malakali kadrlar tayyorlashda mablag' yetishmasligini asosiy to'siq sifatida ko'rsatishgan.

Biroq, kasbiy ta'limni jozibador, ijtimoiy inklyuziv va raqobatbardosh qilish uchun faqat moliyaviy investitsiyalarga bog'lamasdan, kasbiy ta'lim xizmatlarining sifatini ta'minlashga e'tibor qaratish ham kerak bo'ladi.

Kasbiy ta'limda sifatni ta'minlash kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu o'quv dasturlarini standartlashtirish, baholash va monitoring mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, sanoat bilan faol hamkorlikni kuchaytirish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi va bu esa, o'z navbatida, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 16.10.2024-yildagi PF-158-son Farmoni.

2. Бордовский Г.А. Управление качеством образовательного процесса: монография / Г.А. Бордовский, А.А. Нестеров, С.Ю. Трапицын. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. ISBN 5-8064-0457-9.

3. Nikolovska M. The quality approach in vocational education and training in South Eastern Europe and Turkey: building on the Torino process findings.

4. ManpowerGroup. 2024 Global Talent Shortage.

5. Рыжкий П.А. Качество профессионального образования как объект управления. УДК 351.11. ББК 725.

6. Inaugural Review of Quality Assurance. Mayo, Sligo & Leitrim Education and Training Board Self Evaluation Report February, 2021.

7. Recommendation of the European Parliament and of the Council of 18 June 2009 on the establishment of a European Quality Assurance Reference Framework for Vocational Education and Training. OJ C 155, 8.7.2009, p.

8. EUROpean Employment Services. Labour shortages and surpluses in Europe, 2023.

9. Education and Culture DG. European Quality Assurance Reference Framework for Vocational Education and Training (EQARF), 2009.